

2022-yil yanvar-dekabr oylari davomida "O'zkimyosanoat" AJ tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash yuzasidan olib borilgan ishlar to'g'risida ma'lumot

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/interactive/appeals-analysis/report-202212>

2022-yil yanvar-dekabr oylari davomida "O'zkimyosanoat" AJ ijro apparatiga tushgan jami murojaatlar soni 528 tani tashkil etib, 129 tasi yuridik shaxslardan, 399 tasi jismoniy shaxslardan kelib tushgan. Jami murojaatlarning 84 tasi qanoatlantirilgan, 429 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan, 15 tasi ko'rib chiqilmoqda.

Murojaatlarning 195 tasi ishga kirish, 58 tasi mineral o'g'itlar eksporti, 47 tasi homiylik yordami ko'rsatish, 45 tasi qonun va tartib buzilishlari, 30 tasi mineral o'g'itlar sotib olish, 21 tasi hamkorlik qilish, 20 tasi ish haqini oshirish, 15 tasi debitor va kreditor qarzdorlik, 5 tasi konvertatsiya, 1 tasi imtiyozli nafaqaga chiqish, 91 tasi boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali 2022-yil davomida "O'zkimyosanoat" AJga jami 226 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 35 tasi qanoatlantirilgan, 183 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan, 5 tasi rad etilgan, 8 tasi ko'rib chiqilmoqda. Murojaatlarning aksariyati Navoiy, Qashqadaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida yashovchi fuqarolarga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari orqali 2022-yil davomida "O'zkimyosanoat" AJga jami 6 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 2 tasi ijobiy hal qilingan, 4 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi orqali 2022-yil yanvar-dekabr oylari davomida "O'zkimyosanoat" AJga jami 87 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning aksariyati yuridik shaxslarga tegishli bo'lib, ularning 35 tasi mineral o'g'itlar eksporti, 16 tasi mineral o'g'it sotib olish yuzasidan, 13 tasi ishga joylashish, 12 tasi tijorat takliflari, 11 tasi boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan.

Hisobot davrida boshqaruv raisi tomonidan "Maxam-Chirchiq" AJda va "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda, boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari tomonidan "Navoiyazot" AJda va "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda, boshqaruv raisining iqtisod va moliya bo'yicha o'rinbosari tomonidan "Navoiyazot", "Ammafos-Maxam" va "Farg'onaazot" AJlarda hamda boshqaruv raisining investitsiya va innovatsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari tomonidan "Navoiyazot" AJda Sayyor qabullar o'tkazilgan. Sayyor qabular davomida 33 nafar fuqaro qabul qilingan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari jamiyatning ijro apparatida ko'rib chiqilgan hamda qonunda belgilangan muddatlarda murojaat mualliflariga javob berilgan.